



IJTIMOIIY TARMOQLARNING YOSHLARNING ONGIGA TA'SIRI: MUAMMO VA MAS'ULIYATI

Dusiyorova Malika Zohid qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi 1- kurs talabasi

Email: dusiyorovamalika5@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarning ongiga ta'siri, muammo va mas'uliyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida internetdan ortiqcha va nazoratsiz foydalanish yoshlar orasida diqqatning pasayishi, vaqtni samarasiz sarflash hamda noto'g'ri axborot ta'siriga tushish kabi muammolar keltirib chiqarishi aniqlanadi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalardan ongli va maqsadli foydalanish zarurligi asoslanib, yoshlarning raqamli savodxonligini oshirish muhimligi xulosa qilinadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoqlar, yoshlar, internet, tarbiya, axborot xavfsizligi, raqamli savodxonlik.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib, ijtimoiy tarmoqlar inson hayotini keng qamrab olgan. Ayniqsa, yoshlar hayotida Facebook, Instagram, TikTok, Telegram va boshqa platformalar muhim o'rin egallab, ularning kundalik faoliyati, muloqot madaniyati hamda axborot qabul qilish jarayonini tubdan o'zgartirib yuboradi. Bu mazkur tarmoqlar nazoratsiz bo'lsa, yoshlar ongiga va tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va ushbu tarmoqlar orqali axborot almashinuvi nihoyatda tezlashib, dunyoni istalgan nuqtasidagi voqea- hodisalar qisqa fursatda yoshlar ongiga yetib boradi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar nafaqat axborot manbai, balki kuchli ta'sir vositasi sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Ular yoshlarning dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlari va hatto shaxsiy qarorlariga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy tarmoqlarni yoshlarning ongiga ta'sirining muammolari:

1. Vaqtni samarasiz sarflashdir. Yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda uzoq vaqt qolib ketib, asosiy faoliyatga yetarli vaqt ajratolmaydi. Natijada diqqatning susayishi, mas'uliyatsizlik va befarqlik holatlari uchraydi.
2. Doimiy axborot oqimi va tezkorlik– ijtimoiy tarmoqlar orqali foydalanuvchilar muntazam yangiliklardan xabardor bo'lishadi. Ular shu tezkorlikka o'rganib qoladi va ular tez-tez tekshirib turishga odatlanadi.



3. Yana bir jiddiy muammo- axborotning ishonchliligi masalasidir. Ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan soxta xabarlar, noto'g'ri g'oyalar va manipulyativ kontent yoshlarning ongini chalg'itadi. Tanqidiy fikrlashi yetarli bo'lmagan yoshlar bunday axborotlarga tezda ishonib, noto'g'ri xulosalar chiqarishi mumkin.

Yoshlarning mas'uliyati:

Avvalo yoshlarning o'z mas'uliyati muhim hisoblanadi. Yoshlar ijtimoiy tarmoqlardan maqsadli me'yorida va ongli foydalanishni o'rganishi zarur. Vaqtni rejalashtirish, zararli kontentdan chetlanish yoshlarning shaxsiy mas'uliyatidir. Shu bilan birga, otaonalar mas'uliyati ham katta ahamiyatga ega. Ular farzandlarining ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyatlariga befarq bo'lmasdan, ularning kimlar bilan muloqot qilayotganini va qanday axborotlarni iste'mol qilayotganini nazorat qilib borishlari lozim. Eng muhimi, farzand bilan ishonchli muloqotni yo'lga qo'yish zarur.

Bundan tashqari, ta'lim muassasalari mas'uliyati ham yoshlarning raqamlari savodxonligini oshirish bilan bog'liq. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida internet madaniyati, axborot xavfsizligiga oid mashg'ulotlar tashkil etilishi muhimdir. Bu yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'siridan himoyalashga xizmat qiladi.

Xulosa: ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik va ongiga ta'siri yoshlarning ruhiy va ijtimoiy salomatligiga va hayotiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli ota-onalar, o'qituvchilar va jamiyat birgalikda yoshlarni onlayn dunyodan to'g'ri foydalanishga o'rgatishlari zarur. Raqamli texnologiyani foydali maqsadlarda ishlatish va vaqtni to'g'ri boshqarish yoshlarning ongiga nojo'ya ta'sir qilishini va odatlanib qolishini kamaytirishning eng muhim omillaridan biridir.

REFERENCES

1. Nabibullayeva X. Z. (2023). Yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik: muammo va oqibatlar. // Ilm-fan innovatsiyalar jurnalida.
2. Mizomova B. Z va Xasanova Y. M. (2024) O'zbekiston yoshlari orasida ijtimoiy tarmoqlar.
3. <https://www.ziyouz.com>